

AHOLINI IJTIMOIIY XAVFSIZLIGINI O'RGANISH BU NAFAQAT INSONPARVARLIK AKTI, BALKI IQTISODIY VA IJTIMOIIY SAMARADORLIK

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17042401>

Abduraxmanova Manzura Manafovna

*FarDU ijtimoiy ish va sotsiologiya kafedrasi professori,
sotsiologiya fanlari doktori*

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitda O'zbekiston ijtimoiy davlatga transformatsiya bo'lar ekan, davlatning ijtimoiy xavfsizlik holatini doimiy monitoring qilish va baholab borish orqali davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirib borish zaruratini, davlatning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash, uning kesimida aholini muammolari bilan bog'liq ijtimoiy risklarni bartaraf qilish bilan bog'liq xarakatlarni yuzaga keltiradi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida jahon miqyosida tan olingan kambag'allik darajasini o'lchash metodlariga binoan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda monetar-nomonetar (ko'p o'lchovli milliy ko'rsatkich) omillarni hisobga olib, kambag'al shaxslarni aniqlash, monitoring qilish va kambag'allikni qisqartirish milliy metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning barchasi aholini ijtimoiy himoya qilishga, farovonligini taminlashga qaratilgan masalalarni xal qilishligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishida bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni, 2020-yildagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi, 2020-yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi, 2020-yildagi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2025 yildagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yildagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yildagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmon va Qapoplari doirasida amalga oshirilgan va ushbu xuquqiy asoslarning barchasi aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, Aholini ijtimoiy himoya qilish,

ulardagi muammolar bilan ishlash yuzasidan O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yilda Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bog'liq nizomlarni tasdiqlash to'g'risida qarori qabul qilinib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5633-sonli «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi masalalar belgilab berildi. Chunki, Xalq qabulxonalari fuqarolarning ariza va shikoyati belgilangan tartibda, xolislik tamoyillari asosida ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilayotgani mamlakatimizda inson huquq va manfaatlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotganining amaldagi ifodasidir. Bugungi kunda Respublikamizning barcha tuman va shaharlarida tashkil etilgan Xalq qabulxonalari odamlar og'irini yengil qilish, ularning muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, ijtimoiy hayotda yuqoridagi huquqiy asoslarga tayanib, millatni, aholini ijtimoiy xavfsizligini o'rganish orqali aholiga tizimli ijtimoiy yordam ko'rsatish — bu nafaqat insonparvarlik akti, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarini o'rganish masalasi bugungi kunda juda dolzarb, keng qamrovli va chuqur tahlil hamda amaliy yechimlarni talab etuvchi masalalardan biridir. Bu jarayonda Uzbekistonda xalq qabulxonalari tizimining roli katta bo'lib, davlat, jamiyat, fuqarolik institutlari hamjihatlikda yondashilishi talab etiladi.

Dastlab, aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy xavfsizlikka nazariy yondashuvlar Qadimgi Yunonistonda Platon va Aristotel kabi qomusiy olimlar qalamiga mansubligi va ular tomonidan ushbu nazariyalarga hissa qo'shganlar. Jamiyat xavfsizligi bilan ijtimoiy xavfsizlik ayni bir tushuncha bo'lmasdan, aynan ushbu xavflarni yechilishida xalq qabulxonalari roli va uning mohiyati kuchlidir. Chunki xalq qabulxonalari ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining tarkibiy elementidir. Shuningdek, bugungi kunda ushbu tizimining obyekti, predmeti, darajalari va sohalari terminologik, retrospektiv tahlil qilinib mavjud nazariy-metodologik yondashuvlar bilan izlanishlar olib borishni talab etadi. Chunki, xalq qabulxonalari shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi milliy manfaatlari ijtimoiy sohalar kesimida tasniflaniflanishi, ularga qaratilgan tahdidlar va ularning zamonaviy transformatsiyasi konseptual yondashuvlar asosida ochib berilishi zarurdir.